Iqtisod fanlari nomzodi Ismoilova Mastura Axmatovna vafot etdi

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo’limi raisi o’rinbosari, iqtisod fanlari nomzodi Ismoilova Mastura Axmatovna vafot etdi. Samimiy, mehribon, vijdonli, o’z ishiga o’ta mas’uliyatli Mastura Axmatovna 45 yildan ortiq umrini Fanlar akademiyasiga bag’ishlagan.

Marhumaning oila a’zolari va yaqinlariga O’zbekiston Fanlar akademiyasi nomidan chuqur hamdardligimizni bildiramiz.

Kamtarin va mehribon inson, yoshlarning jonkuyar ustozi Mastura Ismailovaning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.